



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

# МАТЕРИАЛЛАРИ



18-oktabr 2021-yil



бадлетном пространстве

С. В. Богдан. Смехотерапия как универсальная технология социально-культурной деятельности в воспитании базовой культуры подростков	73
Аксёнова М. В., Тарасова Ю. Б. Образовательные программы русской православной церкви как средство сохранения традиционной культуры России	79
Д. Реймов. Эмпатия как условие организации процесса обучения игре на скрипке в младшей возрастной группе	82
O'rinov A.A. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari	85
Муродов М.К. Ёшларни маънавий-ахлокий тарбиялашда бўлажак мусика ўқитувчиларининг вазифалари	88
Qayumov I.F. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksalib borishida san'atning tutgan o'rnini	91
Umurova M.Yo. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi	93
Shamsiyev Sh.I Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati	96
Хомидов Х.К. Талабаларда ватанга садоқат ғоясини шакллантиришнинг асосий мезонлари	98

#### 4-ШЎЪБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ - ХАЛҚИМИЗНИНГ МАЪНАВИЙ БЕҚИЁС МЕРОСИ

Norova Sh.U. Xalq musiqa ijodini o'rganishda xalq qo'shiqlarining o'rnini	100
Qo'shayev I.A O'zbek xalq musiqa ijodi	102
Qurbonov J.J. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning qo'shiq aytish malakalarini oshirish	103
Karimov O.I. Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti	105
Raxmatova M.O. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda hofizlik san'ati	107
Ramazonova O'.X. An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tanlash va tarbiyalash	109
Rahmonova I.M. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda qo'shiqlarning o'rnini	111
Gulov Sadritdin Niyozovich. Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati darslari" ning mohiyati	113
Ибодова Севарабону. Умумий ўрта таълим мактабларида халқ кўшиқларининг тарбиявий аҳамияти	115
Ibodov O'.R. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	119
Axrorov X.X. Shaxsni tarbiyalash va shakllantirishda musiqaning o'rnini	121
Давлатназар Юсупов. Ўзбек бахшичилик санъатининг ривож ва ёшлар тарбиясидаги ўрни	123

#### 5-ШЎЪБА. ТАСВИРИЙ ҲАМДА АМАЛИЙ САНЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Azimov Sanjar Samadovich. Interfaol usullarni qo'llash orqali tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish	125
M.O.Ochilova, N.A.Raximova. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati.	128
Aslanova N.X. Umumiy o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at fanlarida interfaol usulda dars o'tish metodini qo'llash	130
G'aniyeva D.K. Dizayn san'ati va zamonaviy tendensiyalari, namunalar tahlili	132



методик қўлланма Т.: – 2009 224 б.

6 Ҳ.Нурматов ва бошқа. 2-синф Мушиқа Т.: Ғ.Ғулум номидаги НМИУ 2001 йил 97-98 б.

## YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALIB BORISHIDA SAN'ATNING TUTGAN O'RNI

Qayumov I.F., BuxDU Musiqa ta'limi kafedrası katta  
o'qituvchisi, E-mail: i.f.qayumov@buxdu.uz

**Annotatsiya:** O'zbek xalqi juda qadimiy va boy madaniy-ma'naviy qadriyatlarga ega. Milliy ma'naviyatimizning asl ildizlari, tomirlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Milliy ma'naviyatimiz shakllanishi va takomillashuvida o'zbek xalqining asrlar va ming yillar davomida yaratgan, ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, sayqal berib, boyitib kelgan mazmunan boy va shaklan xilma-xil og'zaki ijodiyoti tag zamin bo'lib xizmat qildi. U o'zining boshlang'ich asosini qadimiy mifologiyadan, xalq ijodidan olgan. Ushbu maqolada yoshlar ma'naviyatini milliy asosda shakllantirishda xalq ijodiyotining o'rni atroflicha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq ijodi, qadriyat, mif, afsona, mashg'ulot, ma'naviyat, san'atkor.

Xalq og'zaki ijodiyoti dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, xikmatlar, qayroqi so'zlar, topishmokdar, to'y va aza qo'shiqlari, laparlar, o'yinlar, teatrlar, musiqa, o'lanlar va termalarni, aytimlar, olqish va qargishlarni ham o'z ichiga oladi. Xalq ijodiyotining bu qadar keng va xilma-xilligi o'zbek xalqining ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkurlash madaniyati naqadalar boyligi va qadimiyligidan dalolatdir.

O'zbekiston Miflar, afsonalar, qahramonlik dostonlari, to'y va sayllarda, xalq yikinlarida, bayramlarda, sayru safarlarda aytiladigan qo'shiqlar, kuy-ohanglar, termalar, aytishuvlar, masal va topishmoqlar - bularning hammasi o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining uzoq tarixsa ega bo'lgan sohalaridir.

Bebaho ma'naviy boyluk bo'lmish og'zaki ijodiyotning ham, yozma ijodiyotning ham yaratuvchisi-ijodkori, asrlardan-asrlarga avlodan-avlodga, davrdan-davrga o'tkazib pardozirovchisi keng xalq ommasidir.

Xalq doim yaratgan, yaratishdan hech qachon to'xtagan emas. Yaratish, ijod qilish - xalqqa xos xususiyatdir. Xalq ommasi baxtli-saodatli kunlarida ham, boshiga musibat tushgan kezlarda ham yaratishdan, kelajakka tomon intilishdan, orzu-umidlar bilan yashashdan, ham moddiy, ham ma'naviy boyluklar yaratishdan zinhor va bazinhor to'xtamagan. U mehnat va mehnatkashlar xaqida, baqodirlar to'grisida, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchilar, hayotini ezgulikka, elu yurt obodonligi yo'liga baxshida etganlar to'grisida, odamxo'r, zolim devlarni, hayot kushandasi bo'lgan ajdaholarni, yalmog'iz kampirlarni daf etuvchi alp yigitlar, suvda cho'kmas, o'tda yonmas qahramonlar haqida kuylagan.

Xalqning orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, shodlik, baxtiyorlik onlariyu, qadr-qiymati, ma'naviy-axloqiy g'oyalari, dunyoqarashi, falsafiy- huquqiy tushuncha va tasavvurlari, olam haqidagi bilim-boyluklari uning og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti-o'tmish davrlar va uning ijodkorlari xaqida ma'lumot beruvchi ma'naviy boyluk, xalq daxosining ko'zgusi, hikmatlar xazinasidir.



Og'zaki ijodiyotning jamiki boyliklari, bebaho asarlari, odobnoma va odatnomasi, hikmatlariyu afsona va rivoyatlari "xalq ko'nglidagi qayg'u - hasrat va shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobi" dir. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha javohirday asrab, avaylab, sayqal berib, dilida, tilida iymon-e'tiqodla saqlab kelmayotgan birorta xalq yo'q. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, uning dunyoga kelishi, rivojlanishi, o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisa va jarayonlarni badiiy, falsafiy aks ettirishi, ildiz-ildizlari bilan real voqelikka bog'liqligi haqida ham shunday deyish mumkin.

O'zbek xalqi jahondagi barcha xalqlar kabi moddiy boyliklarninggina emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisidir. U o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyati va istedodi bilan asrlar osha tarix ijodkori sifatida madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, falsafiy, huquqiy taraqqiyotga keng imkoniyatlar yaratdi. Uning og'zaki ijodiyot borasidagi hal qiluvchilik roli bebahodir. Inson ruhiy-ma'naviy olamini o'ziga xos tarzda ifodalaydigan, voqelikning badiiy in'ikosi bo'lgan dostonlar va ertaklarning, maqollar va matallarning, bahodirlar, qahramonlar haqidagi go'zal rivoyat va afsonalarning, sehrlovchi kuch va mo'jizakor ta'sirga ega bo'lgan kuylar, g'azallar, aruzlar, baytlarning, kishilarga ezgulikdan, odob -axloqdan, iymonu e'tiqoddan yo'l-yo'riq, hayotiy saboq beradigan hikmatlar, pandnomalar va zarbulmasallarning, falsafiy o'git va dasturlarning, xullasi kalom, og'zaki ijodiyot hamma shakllari va turlarining asoschilaridan biri-o'zbek xalqidir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining namoyon bo'lish shakllari, muhim janrlaridan bo'lgan ertaklar, rivoyatlar, dostonlar va asotirlarni o'qir ekanmiz, xalqimizda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib tafakkur, bashoratgo'ylik qobiliyati va iste'dodi bor ekanligini, u hech orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim istiqbol sari intilganligini bilib, chuqur anglab olamiz.

Og'zaki ijodning, uning tarkibiy qismi bo'lmish ertak va afsonalarning, xalq tafakkuri boyligining har qanday turi ma'nosi zamirida ularning ijodkori bo'lgan xalq ommasining muayyan maqsad va niyatlari, jismoniy mehnatni yengillashtirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari yashirinib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o'z navbatida uning o'zi kishilarning ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga turtki vazifasini ham o'tagan, odamlarni ahillikka, hamkorlikka, do'st-birodarlikka, jamoa bo'lib yashashga mehr-oqibatli bo'lishga o'rgatgan. Ish unumini oshishiga, tabiatning xatarli kuchlariga ta'sir etishda odamzotga yordam bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abralova M, Shamsiyeva Z., Musiqa madaniyati. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim mavzu rejalar. (1-7 sinflar) T., - 2010 yil.
2. Akbarov A.I. Musiqa lug'ati. T.; G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1997 yil.
3. Nurmatov H, Norxo'jayev N. "Musiqa alifbosi" 1-sinf uchun darslik 2-nashr. Toshkent "O'qituvchi" 1999 yil
4. Nurmatov H, Norxo'jayev N, Mirrahimov A. "Musiqa 2-sinf uchun darslik", G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent 2001 yil.